



KREATIVLIK VA IJODKORLIK – BUGUNGI KUN TALABI

Tursunova Lobarxon To'ramirzayevna

Namangan viloyati Yangiyo'rg'on

tumani 41-maktab psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonlari samaradorligini oshirishda kreativ o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'limiy, psixologik ishlar haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kreativlik, qobiliyat, ko'nikma, mahorat, yaratish,

Globalashgan zamonda nafaqat pedagoglar balki, har bir shaxs olg'a yurish uchun albatta zamon bilan hamohang bo'lish kerak. Ayniqsa hozirgi zamon yoshlari juda tirishqoq va bilimli. Bunday yoshlarga ta'lim beradigan o'qituvchilar xam kreativ sifatlarga ega bo'lishi va o'quvchi yoshlardan albatta bir qadam oldinda yurishi, o'z ustida tinmay mehnat qilishi, o'quvchilarning bilimiga tashna ekanligini hisobga olib jarayonga yangilik bilan kirishishi lozim. Kreativlik-ijodkorning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatidir. Kreativ ijodkorlikda pedagog ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi nazariyalarni yaratadi, o'z fikrlari va takliflari bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli pedagoglarga bunga erishishi mumkin.

J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikr ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- o'zigaxoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;



- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya.)

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi.

1. Me'yoriy hujjatlar (o'quv fanlari bo'yicha DTS, o'quv dasturi va rejalari)ni tayyorlash;
2. O'quv manbalari (darslik, o'quv-metodik va metodik qo'llanma, tavsiyanoma, lug'at, ensiklopediya, atlas, ish daftari va b.)ni yaratish ;
3. Ta'lim jarayoni va ma'naviy-ma'rifiy ishlar loyihalarini tayyorlash;
4. O'quv axborotlari, nazorat hamda sinov topshiriqlarini shakllantirish;
5. Ta'lim jarayonini qiziqarli, jonli, jo'shqin tashkil etish;
6. Ilmiy-tadqiqotlarni muvaffaqiyatli olib borish;
7. Ilmiy va metodik anjumanlarda faol ishtirok etish, chiqishlar qilish;
8. Ilmiy, ilmiy-metodik va metodik ishlarni chop ettirish;
9. Davriy hisobotlarni topshirish, attestatsiyadan o'tish;

Pedagogik ijodkorlik quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

O'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularini o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish;

O'qituvchilarga! o'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanish.

Pedagogning kreativ sifatlari:

Ijodkorlik – muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi;



Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs;

Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondosha olishga moyil, o’ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli shaxs;

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, hozirgi butun dunyo bo’yicha shiddat bilan kirib kelayotgan o’zgarishlar va rivojlanish davrida har bir pedagog o’z sohasi bo’yicha zamonaviy bilimlarni egallashi, o’z ustida tinimsiz izlanishi va o’quvchilarni ham mana shu o’zgarishlar davriga tayyorlay olishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ерофеева М.В. «Психологическое консультирование родителей по проблеме гиперактивности ребенка» Санкт-Петербург 2020 г.
2. Sirotyuk A.L. Diqqat etishmasligi giperaktivlik buzilishi. - M .: TC Sphere, 2002y
3. Романчук О.И. Синдром дефицита внимания и гиперактивности у детей / Пер. с украинского. — М.: Генезис, 2010.
4. Osipova A.A., Malashinskaya L.I. Diqqatni tashxislash va tuzatish: 5-9 yoshli bolalar uchun dastur. - M .: TC Sphere, 2001 yil.